

**ALISHER NAVOIYNING IJTIMOYIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA
AQL TALQINI.**

Gulova Anorgul Axtamovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

**INTERPRETATION OF REASON IN ALISHER NAVOI'S SOCIO-
ANTHROPOLOGICAL VIEWS**

Gulova Anorgul Akhtamovna

Associate Professor, Bukhara State University

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РАЗУМА В СОЦИАЛЬНО-
АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ АЛИШЕРА НАВОИ**

Гулова Аноргул Ахтамовна

Доцент Бухарского государственного университета

<https://orcid.org/0000-0001-5308-6061>

gulovaanorgul2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida aql talqini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aql, inson, saxovat, adolat, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, e'tiqod.

Annotation: This article analyzes the interpretation of reason in Alisher Navoi's socio-anthropological views.

Key words: Mind, man, generosity, justice, spirituality, enlightenment, thought, society, education, faith.

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация разума в социально-антропологических взглядах Алишера Навои.

Ключевые слова: Разум, человеческий, щедрост, справедливост, духовност, просвещение, мысл, общество, образование, вера.

KIRISH: Mutafakkir insonni ulug‘lab, u hayvonot va nabotot dunyosidan ayri yaratilgani, unga aqlu tafakkur komil qilib berilgani, olam go‘zalliklaridan bahra olish uchun ko‘rar ko‘z, eshitish uchun quloq, muloqot uchun til, shuningdek, hid bilish uchun dimog‘, qo‘l-oyoq kabi mislsiz ne‘matlar had‘ya etilganini ta‘kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Navoiy his etish hamda aqlning bilish jarayonidagi o‘rnini har qanday toifadagi inson tushunadigan tarzda timsollar orqali tushuntirib beradi. U aqlni borliqni idrok etishning yuqori darajasi deb angelaydi. Shu tariqa Navoiy aqlga, xususan, uning borliqdagi turli darajadagi vaziyatlarni anglashdagi o‘rniga ob‘yektiv tarzda baho beradi.

Alisher Navoiy asarlarida aqlning quyudagi tavsiflari mavjud:

- *abstrakt aql – aqli mujarrad;*
- *barqaror aql – aqli mustaqim;*
- *fahm-farosatga bo‘yso‘nuvchi ong – aql aqli muhosib;*
- *to‘g‘ri, sog‘lom aql – aqli saloh;*
- *aql o‘lchovi, ya‘ni bilimlarning nisbiy me‘yori sifatida – aqli mezon;*
- *o‘tkir, sezgir, nozik aql – aqli xurdabin.*

Aqlning yuqorida sanab o‘tilgan 6 ta tavsifi hozirgi davr yoshlari uchun tanqidiy hamda mantiqiy fikrlash qo‘llanmasidir. Bu yosh avlodda ma‘lumotni shunchaki qabul qilmay, uni ilm o‘lchovi ("aqli mezon") va sezgir aql ("aqli xurdabin") elagidan o‘tkazish ko‘nikmasini yuzaga keltiradi hamda ularni har xil zararli g‘oyalar girdobiga tushib qolishdan saqlaydi.

Har bir shaxs Alloh tomonidan in‘om qilingan mazkur boyliklarning qadrini bilib, o‘zini shaxs sifatida anglashga harakat qilishi zarurligini uqtirgan alloma “Xamsa”da

insonning ideal shaxs darajasiga erishishi uchun nafsini qanday narsalardan uzoq tutishi, o'zida qanday fe'l-atvor, fazilatlarni shakllantirishini o'ziga xos timsollar orqali bayon qiladi. Alisher Navoiyning "axloq hamda nafs tarbiyasi" to'g'risidagi g'oyalari bugungi yosh avlodda iste'molchilik madaniyati va zamonaviy axborot tahdidlariga qarshi kurashish va ma'naviy immunitetni shakllantirish qobiliyatini tarbiyalaydi. Bu yoshlarga ma'naviy qadriyatlar va moddiy manfaatlar (majoziy ishq hamda dunyoviy ehtiyojlar) muvozanatini anglatish mexanizmini bajaradi. Shuningdek, nafsni jilovlash — bu ta'qiqlash emas, balki irodani chiniqtirish ekanligini bildiradi. Uning ta'kidicha, miqdor jihatdan tarbiya qilingan har kishi, sifat jihatdan ideal shaxsga aylana oladi. Navoiyning inson to'g'risidagi mulohazalari "Xamsa"ning "bismilloh"idan boshlanadi. Ya'ni ijodkorning ta'biricha, "bismillohir rahmonir rahim" shunday bir qimmatbaho marjondirki, bu singari injular saf tortgan marjonning ipi "jahonu jon" rishtasi sanaladi. Agarda biz bularni marjonning o'ziga xos jihati deb hisoblaydigan bo'lsak, uning xislati boshqa holatda bo'y ko'rsatadi. Biror bir kishi ushbu marjondan tasbih sifatida foydalanib, chin dildan haq yo'lga harakatlansa, umrboqiylik xazinasiga (ganji baqoga) erishadi.

“Yo‘qki o‘shul rishtai gavhar baho,

Ganji ilohiyg‘a erur ajdah.

Yoki bular barchasi ta‘vil erur,

Arshi muallo aro qandil erur”¹.

Natijada u mahzani "vahdatga (Allohning yagonaligi siri tomon) yo'l" ham olishi mumkin. Alisher Navoiyning ta'kidicha, bu yo'l qiyin hamda xavf-xatardan xoli bo'lmaganligi sababli kishilar aynan shu joyda ikkiga bo'linadilar: qabul qilinuvchilar va rad etiluvchilar.

“Azmig‘a chun qo‘ydi qadam ahli rad,

Rahbari tavfiqdin o‘lmay madad”².

Yuqoridagi baytda ahli rad deganda Yaratgandan madad olmay manzil tomon ravona

¹ Аlisher Navoiy. Хайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 11.

² Аlisher Navoiy. Хайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 12.

bo‘luvchilar ko‘zda tutilyapti. Bu kabi insonlarga ilohiy boylikka (ganji ilohiy) erishish nasib qilmaydi. Yuqorida fikr yuritilgan tasbih ajdaho singari ularning yo‘lini yopadi hamda ahli qabul uchun to‘g‘ridin-to‘g‘ri yo‘l ochadi. Shundan so‘ng Navoiy inson (maxluqot)ni yaratgan Allohga hamdu sanolar aytadi. Boisi Yaratuvchi insonni yaratgan paytda uning qalbiga muhabbat olovini yoqqan.

Ilk munojotda diniy-falsafiy nuqtai nazaridan Tangri tarafi keltiriladi: Ya’ni:

“Ey sanga mabda’³da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam’yazal⁴”⁵.

Ushbu paytda olam yaratilmasdan avval, faqatgina Alloh mavjud bo‘lganligi haqida fikr boradi. Yaratganning hadsiz jamoli yolg‘iz Ungagina jilva berardi:

“Mazhar⁶ o‘lub husnungga mir’ot⁷i g‘ayb,
Jilva qilib anda xayoloti g‘ayb.

Nozir o‘zung erdinggu manzur o‘zung.

Ishqingga xush husnungga mag‘rur o‘zung”⁸.

Allohning husnu jamoli tengsizligi bois Unga beaded ko‘zgu lozim edi. Parvardigorning borliqni vujudga keltirishidan muddaosi shu ediki, olamning har bir manbasida Yaratganning jamoli, xuddi oynada namoyon bo‘lgandek zuhur etadi:

“Shohid etib chehra bu ko‘zgu anga,
Ul ne qilib, ko‘rguzubon bu anga.
Ayladi chun odami xokiy zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur”⁹.

³ Мабдаъ – бошланиш; асл, асос.

⁴ Ламъязал – доим

⁵ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. Тошкент, Фан, 1991, – Б. 19.

⁶ Мазҳар – кўриниш; ҳар нарсанинг кўринадиган, зоҳир бўладиган жойи.

⁷ Миръот – ойна, кўзгу

⁸ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 20.

⁹ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 30.

Parvardigor jamiki olamlarni paydo qilarkan, jumlai jahonni tashkil qilgan hamma mavjudotu-maxluqotlardan buyukroq hamda azizroq bo‘lgan jonzotga o‘z husnu-jamolini jilvalantirish muddaosi bo‘lgan. Bu mavjudot inson nomi ila atalgan maxluqot edi.

Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading¹⁰.

Insonning bunchalik aziz va mukarram ekanligining sababi u boshqa maxluqotlardan farqlanib, Tangrining kalomiga komilligi, shuningdek, yaratuvchining pinhon bo‘lgan (haliyam oshkor qilinmagan) sinoatlarini o‘zida olib yuruvchi, xuddi Yaratgan hikmatlar xazinasining bir qismi hisoblangan mavjudot ekanligidandir.

Mana shu sababdan ham Tangri tomonidan nozil qilingan Qur’oni Karimda insonga nisbatan: ”Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo‘ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O‘zimiz yaratgan ko‘p jonzotlardan afzal qilib qo‘ydik.”¹¹, kabi ta’riflar berilgan. Shuningdek, mazkur mavjudot Alloh ma’rifatini, ya’ni, uni anglash ilmini tushunishga qodir, zukko mavjudotdir:

“Yorab, o‘shul ganjki mahram anga,
Kimsa emastur, magar odam anga”¹².

Demak, Navoiy ta’biricha, inson zoti Xudo tarafidan hikmat hamda xislatlardan mosuvo, ojiz mavjudot sifatida yaratilmagan. Aksincha, inson – Parvardigorning mo‘jizaga boy xazinasini, yetuk aql va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan zakiy maxluqotidir.

Ya’niki, chu olamni yaratti Ma’bud,

Olam eliga qudrat ila berdi vujud.

¹⁰ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7.– Тошкент, Фан, 1991, – Б. 21.

¹¹ А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. Ал-Исро сураси 70-оят. – Б. 184. www.ziyouz.com.

¹² Алишер Навоий. Хамса. Ҳайратул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ.Ўн жилдлик, Ж. 6. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.15.

Inson edi maqsudki, bo‘ldi mavjud,

Insondin ham habibi erdi maqsud¹³.

Ijodkorning ta’kidicha, faqatgina inson mavjudotlar o‘rtasida eng suyuqliki ekanligi bilan boshqa maxluqotlar ham qadrsiz emas, aksincha, ular ham o‘z o‘rniga ega bebaho gavharlar hisoblanadi:

“Xamsa”ning ilk dostoni “Hayratul-abror”da bayon qilinishicha, Alloh insoniyatning ibtidosi – Odam va Havoga ruh ato etgan paytidayoq ularni sharaflig qilgan edi:

“Egniga yopildi duvvoji sharaf,
Qildi makon boshig‘a toji sharaf”¹⁴.

Gapning indallosi shundaki, Tangri taoloda (uning saltanatida) nimaiki pinhon qilingan bo‘lsa, habibining chehrasida shu narsalar aks etarkan:

“Bo‘ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon”¹⁵.

Tangri insonni alohida e’zozlab, unga buyuklik tojini kiydiradi hamda uni rasullik taxtiga loyiq ko‘radi. Farishtalarni unga himoyachi qiladi, Havo ham bu kabi ne’matlardan bebahra qolmadi, yaratuvchi uni o‘z nuri ila nurlantirdi:

“Poku jamil ayladi Havvo yuzin,
Uylaki haq partavi havro yuzin”¹⁶.

Alisher Navoiy tasvirida inson yaratilishidanoq, musharraf va tabarruk bo‘lgan¹⁷. Shuning uchun ham inson maxluqotlar sarvaridir.

¹³ Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 16. Тошкент, Фан, 2000, – Б. 3-4.

¹⁴ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991, – Б. 31.

¹⁵ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент, Фан, 1991, – Б. 31.

¹⁶ Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент, Фан, 1991, – Б. 31.

¹⁷ Мухиддинов М, Асроров М. “Ҳайратул-аброр” дostonидаги ҳамд ва наътлар талқини // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” Халқаро илмий анжуман материаллари. – Навоий, 2017. – Б. 34.

Subhonallohu huval-aliyul-mutaol,

Kim ayladi ishq bahrini molomol.

Insonni chu anda soldi g'avvos misol,

Ham gavhari hol berdi, ham durri maqol¹⁸.

Alisher Navoiyning inson modeli uch muhim tayanch ustiga barpo etilgan:

— **Aql (Vazir):** Odamni hayvonot dunyosidan farqlovchi, olamni hamda Allohni anglashga xizmat qiluvchi yuksak idrok.

— **Ko'ngil (Shoh):** Ilohiy sinoatlar xazinasi. U uchun qalb Ka'badan yurori turadi, sababi u Yaratganning asil tajalligohi.

— **Nafs va Axloq:** Odamning hayvoniylik darajasidan "Kamil inson" bosqichiga erishishi, uning o'z nafi ustidan g'olib bo'lishi hamda maqtalgan axloq ("axloqi hamida") sohibi bo'lishi bilan belgilanadi.

Xulosa: Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, Alisher Navoiy inson konsepsiyasining mohiyati insonning "Borliqning gultoji" ekanligidir. Uning ta'kidicha, odam shunchaki biologik jonzot emas, balki olamning vujudga keltirilishidan ko'zlangan bosh maqsad (illati g'oiy) sanaladi. Ilohiy daxldorlik jihatdan odam Allohning yerdagi o'rinbosari (xalifasi) hamda Uning husnu-jamoli aks etgan ko'zgudir. Ikki olam birligi tamoyili nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, inson vujudi ma'naviy (ruh, aql, ko'ngil) hamda moddiy (suv, tuproq, olov, havo) borliqlarning sintezidan tashkil topgan bo'lib, u kichik olam (mikrokosm) sifatida koinotning (makrokosmning) jamiki xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur qarash hozirgi yoshlarda o'z-o'ziga bo'lgan mas'uliyatni hamda ishonchni yuksaltirish, inson qanchalik oliy mavjudot ekanini tushunish orqali ularda loqaydlik, jinoyatchilik hamda tushkunlikka qarshi ichki "g'urur" hissini uyg'otadi.

¹⁸ Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ.Ж.1.–Тошкент: Фан, 1987. – Б. 6.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 11.
2. А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. Ал-Исро сураси 70-оят. – Б. 184. www.ziyouz.com.
3. Алишер Навоий. Хамса. Ҳайратул-аброр. Фарход ва Ширин. ТАТ. Ҷн жилдлик, Ж. 6. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – Б.15.
4. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн, МАТ. 20 жилдлик, Ж. 16. Тошкент, Фан, 2000, – Б. 3-4.
5. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ.Ж.1.–Тошкент: Фан, 1987. – Б. 6.
6. Муҳиддинов М, Асроров М. “Ҳайратул-аброр” достонидаги ҳамд ва наътлар талқини // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” Халқаро илмий анжуман материаллари. – Навоий, 2017. – Б. 34.